



LEGAL FOUNDATIONS FOR ENSURING RELIGIOUS TOLERANCE IN UZBEKISTAN

Z.B. Niyazov

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

Karshi State Technical University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Religious tolerance, legal foundations, Uzbekistan, religious freedom, dialogue between state and religious organizations.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article provides a detailed description of religious tolerance in the Republic of Uzbekistan and its legal framework. The article also offers a detailed analysis on legal norms and documents supporting religious freedom in Uzbekistan, as well as initiatives aimed at ensuring mutual respect and cooperation between representatives of different religions, the current state of dialogue between the state and religious organizations, and prospects for future development. The achievements and problems of Uzbekistan in ensuring religious tolerance are analyzed.

O'ZBEKISTONDA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Z.B Niyazov

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qarshi davlat texnika universiteti

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Diniy bag'rikenglik, huquqiy asoslar, O'zbekiston, diniy erkinlik, davlat va diniy tashkilotlar muloqoti.

Anatatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi diniy bag'rikenglik va uning huquqiy asoslari batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekistondagi diniy erkinliklarni qo'llab-quvvatlovchi qonuniy me'yorlar va hujjatlar, shuningdek, turli din vakillari o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslar, davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi muloqotning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari

haqida tahliliy ma'lumotlar aks ettirilgan. Diniy bag'rikenglikni ta'minlashda O'zbekistonning yutuqlari va muammolar tahlil qilingan.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РЕЛИГИОЗНОЙ ТЕРПИМОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

З.Б. Ниязов

доктор философии (PhD) по историческим наукам
Каршинский государственный технический университет
Карши, Узбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: религиозная толерантность, правовые основы, Узбекистан, свобода вероисповедания, диалог государственных и религиозных организаций.	Аннотация: в данной статье подробно освещается религиозная толерантность в Республике Узбекистан и ее правовые основы. В статье также отражены правовые нормы и документы, поддерживающие религиозные свободы в Узбекистане, а также инициативы, направленные на обеспечение взаимного уважения и сотрудничества между представителями различных религий, аналитическая информация о текущем состоянии и перспективах дальнейшего развития диалога между государственными и религиозными организациями. Проанализированы достижения и проблемы Узбекистана в обеспечении религиозной толерантности.
---	--

Kirish. Xalqimiz azaldan bag'rikeng va mehmondo'st bo'lib kelgan. O'zbekistonda qadimdan turli millat va elat hamda konfessiya vakillari o'zaro tinch-totuv yashab, o'z diniy rasm-rusumlarini emin-erkin ado etib kelgan bag'rikeng diyor sifatida qadrlanadi. Mamlakatimizning ushbu yo'nalishda olib borayotgan izchil siyosati xalqimiz va jahon hamjamiyati tomonidan haqli ravishda e'tirof etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sobiq Ittifoq davrida dinga oid siyosati jamiyatni batamom dahriylashtirishga qaratilgan edi. Ruhoniylar, diniy ulamolar qatag'on qilinib, uch karra "katta tozalashlar" (1927, 1936-1937, 1949 yillar) oqibatida ma'naviyat va ma'rifatga talofatlar yetkazildi[1]. Istiqlol tufayli jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar, mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi tadqiqotchilarga ilgari ko'pchilik uchun yopiq bo'lgan arxiv hujjatlari va boshqa turdagi manbalardan keng foydalanish imkoniyatini berdi. Bu borada I.Xo'jamurodov, D.Alimova, A.Muminov, A.Tog'ayeva, H.Yo'ldoshxo'jayev, S.Agzamxodjayev, N.A.Mustafayeva, O.Yusupov, Z.Xusniddinov, B.Musayev, Z.Munavvarov, A.Yunusova kabi olimlarning diniy

siyosat, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar qonunchiligi, islom dini va ta'limi tarixining ayrim masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarini ta'kidlash joiz.

Ushbu olimlarning tadqiqotlarida dinga qarshi keng miqyosda tashviqot-targ'ibot ishlari olib borilib, ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlarimizga "eskilik sarqitlari" sifatida qaralganligi kabi masalalar keng yoritilgan. Shu bilan birga sovet hokimiyatining diniy siyosati "to'lqinsimon" bo'lib, ya'ni bu siyosat ba'zan keskin, hatto qatag'ongacha borib yetgan, ba'zan tarixiy sharoit talab qilganda qattiqqo'llikni yumshatish evaziga kishilarni sovet tuzumiga munosabatini o'zgartirishga majbur bo'lganlar[2]. Ayniqsa II jahon urushi yillarida siyosiy vaziyatning o'zgarishi, fashizmga qarshi kurash uchun xalqni ruhlantirishda din muhim ahamiyat kasb etishi inobatga olib 1943-yilda mintaqada muhim diniy idora - O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasining tashkil etilishiga olib keldi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola umumqabul qilingan metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik va xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik qo'lga kiritilgach, O'zbekistonda obyektiv ravishda diniy omil kuchaydi. Masjid va madrasalar, Makka va Madinaga haj va umra qiluvchilar, erkin tarqalayotgan diniy adabiyotlar soni keskin ortdi. 1991-yilning 14-iyun kuni O'zbekiston huquqiy tajribasida birinchi bor davlatning vijdon erkinligi va dinga oid siyosatini belgilab beruvchi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Uning qabul qilinishi din va turli din vakillarining hayotida muhim o'rin egalladi. 1991-yil 31-avgust Respublika parlamentida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilingan kundan e'tiboran yurtimizda din yo'nalishiga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi.

Ma'lumki, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlik o'z-o'zidan yuzaga keladigan hodisalar emas, balki, u davlat tomonidan olib boriladigan milliy va diniy siyosatning hosilasidir. Bunda hokimiyat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Demak, nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy yoki siyosiy sohalarida, balki turli millatlar va dinlar o'rtasida do'stona munosabatlarni ta'minlashda ham davlat yetakchi va asosiy islohotchi bo'lib qolishi lozimligini hayot tajribasi isbotlamoqda.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,. Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dinga quyidagicha munosabat bildiradi: "Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot, qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz" [4].

1992-yil 27-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ro‘za hayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlarini dam olish kuni deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi[5]. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgan ilk yillaridan diniy sohaga o‘zbek xalqining milliy ma‘naviyatining ajralmas qismi sifatida alohida e‘tibor qaratildi. Mustaqil O‘zbekiston birinchi Konstitutsiyasining qabul kilinishi inson huquqlari sohasidagi qonunlarni yaratishdagi katta ishlar uchun asos bo‘lib qoldi. Mustaqillik yillari dinning huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatida tutadigan o‘rni va mavqei aniq belgilanib, bu sohada mustahkam qonunchilik poydevori yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar”, degan demokratik tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, Bosh qomusimizda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi mustahkamlab berildi, ularning vijdon erkinligi, urf-odatlari, milliy an‘analari hurmat qilinishi kafolatlangan[6].

Mustaqillik sharofati bilan dastlab maktablarda, keyinchalik barcha oliy o‘quv yurtlarida “Dunyo dinlari tarixi” va “Dinshunoslik asoslari”[7] kabi darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar asosida dinlar tarixini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Darsliklarda jahon dinlari, milliy dinlar tarixi to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot berilib, “Islom dini ma‘rifat dini” g‘oyasini maktab o‘quvchilariga singdirish maqsadida Islom dini tarixi nisbatan keng bayoi etilgan. Jumladan, Islom dini ta‘limoti, marosimlari, bayramlari, aqidalari va arkonlari tushunchalarining mazmuni, mohiyati ochib berilgan. Shuningdek Islom marosimlari: namoz o‘qish, ro‘za tutish, zakot berish, haj, sunnat, nikoh, qurbonlik qilish, janoza va boshqa koida, tartiblari hakida batafsil ma‘lumot berilgan.

Mustaqillikni dastlabki yillarida sovet hukumati ateistik targ‘iboti va kommunistik g‘oyalar tazyidan xalos bo‘lish diniy bag‘rikenglikni rivojlanishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, diniy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi borasida qisqa fursat ichida ulkan ishlar amalga oshirildi. Respublikamizda barcha dinlarning erkin rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berildi.

Jamiyatdagi o‘zgarishlar va zamon talablari vijdon erkinligi to‘g‘risidagi qonunning tubdan o‘zgartirish zaruratini kelib chiqardi. Shu bois 1998-yil 1-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Qonunning 5-moddasida “hech bir dinga yoki diniy e‘tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb konstitutsiyaviy qoida belgilab qo‘yildi[8].

1997-yilning oxirida Namangan viloyatida bo‘lib o‘tgan noxush voqealar jamiyatimizni yoshlarimizning kelajagi to‘g‘risida jiddiy fikr yuritishga undadi. Yoshlarning ba’zi bir guruhlari o‘zining tashqi qiyofasini o‘zgartirib, bu bilan o‘zlarini Islomni qabul qilganliklari va diniy

oqimlardan birining a'zosiga aylanganliklarini bildirishga harakat qildilar[9]. Shuning uchun Qonunning 14-moddasida fuqarolarning (diniy tashkilotlarning xizmatidagilar bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishlariga yo'l qo'yilmasligi qayd etildi.

Bularning hammasi usha davrda diniy tashkilot rahbarlarining davlat idoralari ko'rsatmalariga itoat etmaslik holatlari uchrayotganligi uchun qabul qilindi.

Qonunni qabul qilinishi jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar, xususan diniy vaziyatni belgilab beradigan tarkibiy unsurlar: diniy tashkilotlarning faoliyatlari, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini to'laroq qondirish zaruriyati va ayni paytda diniy fundamentalizm va sektantlikka qarshi kurashning huquqiy asoslarini mustahkamlash zaruriyatidan kelib chiqqan. Xususan, Qonunning yangi tahriri qabul qilingunga qadar respublikamizda jami 4030 ta masjid, shundan faqat 1949 tasi ro'yxatdan o'tgan, 2081 tasi ro'yxatdan o'tmagan holatda faoliyat yuritgan, 149 ta turli dinlarga mansub diniy tashkilot va 20 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom instituti, 17 ta madrasa va 2 ta seminariya) mavjud edi [10].

Qonun moddalarini bajarishni takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1998 yilning 20 iyun kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi qaroriga asosan respublikada faoliyat ko'rsatayotgan barcha diniy tashkilotlar Adliya idoralarida qayta ro'yxatdan o'tishlari belgilab berildi.

Mazkur Qonun qaror ijrosi natijasida 1999-yilda respublika adliya tashkilotlari tomonidan 11 ta konfessiyaga mansub jami 1452 ta diniy tashkilot ro'yxatdan o'tgan. Shundan 1347 tasi islom dini va qolgan 105 tasi boshqa diniy konfessiyalarga qarashli tashkilotlardir. Ular mustaqil yuridik shaxs sifatida mamlakat ijtimoiy hayotida qatnashish, diniy adabiyotlar nashr qilish, zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilish va hokazo huquqlarga egadirlar [17]. Undan tashqari Din ishlari bo'yicha qo'mitaning tasarrufida Xalqaro islom-tadkikot instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatib, ularda 1000 dan ortik talaba-yoshlar ta'lim olmoqda edi [11].

2004-yilda O'zbekiston musulmonlari idorasi O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati bilan hamkorlikda Brayl alifbosida bosilgan Qur'on taqdimotini o'tkazdi. O'zbekiston Respublikasi bu vazifani bajargan dunyoda uchinchi davlat (Misr va Tunisdan keyin) bo'ldi [12]. Tadbirda ko'zi ojizlar uchun Qur'oni karim nashri, Toshkent shahridagi ikkita juma masjidida kar va soqovlar uchun surdo-tarjimonni tashkil etish, bu tajribani O'zbekiston Respublikasining boshqa hududlarida ham joriy etish to'g'risida qaror qabul qilinishi ta'kidlandi. Brayl alifbosidagi Qur'on nashrlari yurtdoshlarimiz uchun bebaho tuhfa bo'ldi va maxsus maktab-internatlar, ommaviy kutubxonalarga berildi.

Din sohasida davlat siyosatining to'g'ri yo'nalishda olib borilayotganligini 2007-yil - Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasasi -

AYSESKO (ISESCO) tomonidan Toshkent shahri Islom madaniyatining 2007-yildagi poytaxti deb e'lon qilinishidagi e'tirofda o'z aksini topdi. 2007-yil 14-15 avgust kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishiga bag'ishlangan "O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan olimlar qatnashdi[13].

Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va termiziy allomalarining benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug' allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish maqsadida 2017-yil 14-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2774-sonli qarori qabul qilindi[14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 27-martdagi PQ-2855-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi[15].

Respublikada faoliyat olib borayotgan oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarini yuqori malakali ilmiy kadrlar bilan ta'minlash, tayyorlanayotgan mutaxassislarining ilmiy va kasbiy salohiyatini oshirish, qur'onshunoslik, tafsir va fiqh, hadisshunoslik, kalom ilmiy yo'nalishlari bo'yicha magistrnlarni, yetuk ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrda PQ-3433-sonli "O'zbekiston Islom akademiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi[16]. Qarorga muvofiq Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Termiz shahrida Imom Termiziy ilmiy-tadqiqot markazi, Buxoroda Mir Arab Oliy madrasasi, Toshkent shahrida O'zbekistondagi islom madaniyati markazi faoliyatini ma'naviyatimizni yanada yuksaltirish, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, ijtimoiy barqarorlik, o'zaro ahillik va totuvlik muhitini yaratish borasida takomillashtirishga qaratildi.

Vijdon erkinligini ta'minlash yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017-yil 7-iyun kuni "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

367-sonli Qarori tasdiqlandi [17]. Qaror asosida “Haj” va “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom huquqiy-meyoriy hujjat sifatida qabul qilindi. Mazkur hujjat ziyoratga borish jarayonida ijtimoiy adolatni yanada to‘laroq ta‘minlash, muqaddas ziyoratlarni tashkil etish manfaatdor vazirlik, idora va tashkilotlarning vazifalarini aniq belgilashga xizmat qiladi. Xususan, ushbu Nizom asosida O‘zbekiston musulmonlari idorasi veb-saytida ziyoratchilar ro‘yxatining yagona onlayn elektron bazalari shakllantirilmoqda. Bu fuqarolarimizga ziyoratga borish navbatini kuzatib borish imkonini berdi[18].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida Yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lida mamlakatimizda ma‘naviy taraqqiyot, millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining dastlabki natijalari va kelgusida bu ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish uchun bir necha vazifalar va maqsadlar belgilab olindi. Mamlakatning islom sivilizatsiyasini rivojlantirish borasidagi rolini yanada oshirish hamda buyuk allomalarning jahon tamadduniga qo‘shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyuldagi “Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5186 sonli Qarori qabul qilindi[19].

Hozirda O‘zbekistonda yuzdan ortiq millat va elat vakillari bahamjihat yashamoqda. Shaklan dunyoviy bo‘lgani bilan O‘zbekiston ma‘naviy mohiyati jihatidan musulmon davlatidir. O‘zbekistonda ma‘naviy sohada sodir bo‘layotgan hodisalar, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda buyuk allomalarimiz merosini o‘rganish, targ‘ib qilish, yoshlarga yetkazish xarakatlari kelajakda “islomning oltin davrini” tiklaydi, ya‘ni ma‘rifatchilik, boshqa dinlar va millatlar vakillari bilan hamjihatlikka, madaniyatlar gullashiga, o‘z davrining porloq sivilizatsiyasi yaratilishiga olib keladigan din sohasida siyosat olib borilmoqda.

Dinning yuksak madaniyat va ma‘naviyat vositasi ekanligi, beqiyos axloqiy-tarbiyaviy qudrati, shuningdek, insonlarni kamtarinlik, kamsuqumlik, halollik va poklikka undovchi qadriyatlari milliy qadriyatlar qatorida qonunan tan olindi. Din har qanday millatlararo mojarolar, qonli to‘qnashuvlarni qattiq qoralaydi, turli din va millatdagi odamlarni o‘zaro birodar, ahil bo‘lib, tinch-totuv hayot kechirishga da‘vat etadi.

O‘zbekistonda haj va umra ziyoratchilari uchun sharoitlar yaratildi. “Yetmish yil hukm surgan kommunistik tuzum davrida O‘zbekistondan bor-yo‘g‘i 130 kishi haj amalini bajargan bo‘lsa, bugungi kunda har yili o‘zbekistonlik besh mingdan ziyod kishi o‘zining ezgu orzusi va musulmonlik burchini ado etmoqda” [20]. Mustaqillik yillarida 308 ming nafar musulmon Saudiya Arabistoniga ziyorat uchun borgan bo‘lsa, shulardan 130 ming kishi “Haj”, 178 ming kishi esa “Umra” amalini bajarishga muvaffaq bo‘lgan. 2,5 ming xristian va yahudiylar o‘zlarining

muqaddas diniy qadamjolariga tashrif buyurganlar. 2016-yilda Saudiya Arabistoniga 11 mingdan ortiq kishi, shulardan 6 mingdan ortiq “Umra” va 5200 kishi “Haj” ziyoratiga bordi. 2018-yildan boshlab “Umra” safari kvotasi 6 mingdan 10 mingga oshirildi. 2019-yildan e’tiboran O‘zbekiston fuqarolari uchun “Umra” ziyoratlari kvotasi bekor qilindi. 2020-yilga kelib “Umra” qiluvchi fuqarolar soni 30 mingga yetdi, “Haj” esa 5 mingdan 7,2 mingga ko‘paydi [21]. Keyingi yetti yilda 60 mingdan ziyod yurtimiz musulmonlari haj amallarini bajardilar. 2024-yilda esa O‘zbekistondan jami 15 ming nafar ziyoratchi ikki muqaddas shahar – Makka va Madina ziyoratiga borib, o‘zlarining ezgu orzularini amalga oshirdilar [22].

Xulosa. O‘zbekistonda mustaqillikka erishganidan so‘ng diniy siyosatda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan dunyoviylikni saqlash va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash o‘rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilindi hamda bu jarayon davom etmoqda. Tadqiqot davrida hukumat tomonidan diniy siyosatni amalga oshirish va mazkur sohani yo‘nalishlarini qonuniy tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning soni va salmog‘i oshib bordi. Diniy sohada jami 70 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, shu jumladan 7 ta O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, 6 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, 31 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, 22 ta O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, 4 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar, ulardan 15 ta normativ-huquqiy hujjatlar kuchini yo‘qotgan. Hozirgi vaqtda respublikamizda mavjud bo‘lgan turli din vakillarining o‘zaro munosabatlari yurtimizda tinchlik, osoyishtalik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan dabiyyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси. Энциклопедия. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.- 73 б.
2. Мустафаева Н. Ўзбекистонда совет ҳукуматининг лийний сиёсати // О‘zbekiston tarixi -Тошкент. 2005 - № 2, - 35 б.
3. Ўзбекистон миллий архиви (ЎЗМА). 2456-фонд, 1-рўйхат, 190-иш, 26-36-варақлар.
4. И.А.Каримов. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид,. Барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997.- 35 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1992-й.,
6. Қаранг: Диншунослик асослари – Тошкент, 1995.; Жўраев У., Саиджонов Й. Дунё динлари тарихи.- Тошкент, 1998.; Диншунослик.– Тошкент, 2003.; Агзамходжаев С.С., Раҳимжонов Д.О., Муҳамедов Н.А., Нажмиддинов Ж.Х. Дунё динлари тарихи.- Тошкент, 1998.; Диншунослик асослари – Тошкент, 2013. ва б.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 99-modda
8. O‘zMA, M-37-fond, 1-ro‘yxat, 2561-ish. 42-bet.
9. Миноваров Ш. Дин ва давлат муносабатлари масалалари. //Хамжиҳатлик ва бағрикенглик – тараққиёт омили. – Тошкент, 2001.- Б. 75.
10. Мансуров А.Д. Ўзбекистон республикасининг миллатлараро муносабатлар масалалари ва дин ишлари бўйича давлат сиёсати. // Миллатлараро ҳамжиҳатлик-барқарорлик омили.- Тошкент, 1999.- Б. 7.
11. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining joriy arxivi. Qo‘mitaning 1999-yil hisobot materiallari.
12. Юсупов О.О. Обеспечение религиозной свободы в Республике Узбекистан. // Ўзбекистон – тинчлик ва тотувлик мамлакати. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2017.- 44 б.
13. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining joriy arxivi. Qo‘mitaning 2007-yil hisobot materiallari.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 14.02.2017 йилдаги ПҚ-2774-сон // <https://lex.uz/>
15. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017-й., 31-сон, 782-модда.
16. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.12.2017-y., 07/20/3433/0879-son.
17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 7-июндаги 364-сон, “Ҳаж” ва “Умра” тадбирларини ташкил этиш ва ўтказишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017-й., 23-сон, 480-модда.
18. O‘zMA. M-152-fond, 1-ro‘yxat, 65-ish, 115-bet, O‘zbekiston musulmonlar idorasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan yozishmalari.
19. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.07.2021-y., 07/21/5186/0683-son.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/>
21. O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazining joriy arxivi. Islom sivilizatsiyasi markazining 2020 yilgi hisobotidan
22. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga Qurbon hayiti tabrigi. 15.06.2024.// <https://president.uz/>